

BADIIY PSIXOLOGIZM GENEZISI

Sitora Komiljonovna Toshmamatova

Farg'ona davlat universiteti

amaliy ingliz tili kafedrası mustaqil

izlanuvchisi Elektron pochta:

bellasitora@gmail.com

Telefon: +998 97 214 05 40

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada adabiyotshunoslikda dolzarb masalalardan biri bo'lgan badiiy psixologizm tushunchasi hamda mazkur masalaning genezisi haqida fikr yuritilgan. Badiiy psixologizmning adabiyotshunoslik ilmiga kirib kelishi, bu sohada amalga oshirilgan ilk tadqiqotlar, ingliz va o'zbek adabiyotshunos olimlarining nazariy qarashlariga alohida to'xtab o'tilgan hamda badiiy psixologizm va psixologik tahlil terminlariga munosabat bildirilgan.

Tayanch so'zlar: badiiy psixologizm, badiiy obraz, ruhiyat, psixologik tahlil,

psixoanaliz, analitik prinsip, dinamik prinsip, tipologik prinsip, ijodkor, psixoanaliz struktura.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается понятие художественного психологизма, являющегося одним из актуальных вопросов в литературоведении, а также Генезис данного вопроса. Проникновение художественного психологизма в литературоведение, первые исследования в этой области, были посвящены теоретическим взглядам английских и узбекских литературоведов, а также терминам художественный психологизм и психологический анализ.

Ключевые слова: художественный психологизм, художественный образ, психологический анализ, психоанализ, аналитический принцип,

динамический принцип, типологический принцип, творческий, психоанализ структура.

ABSTRACT

This article discusses the concept of artistic psychologism, which is one of the pressing issues in literary criticism, as well as the Genesis of this issue. The penetration of artistic psychologism into literary studies, the first studies in this field, were devoted to the theoretical views of English and Uzbek literary scholars, as well as the terms artistic psychologism and psychological analysis.

Keywords: artistic psychologism, artistic image, psychological analysis, psychoanalysis, analytical principle, creative, psychoanalysis structure.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunga kelib psixologizm badiiy adabiyotning sifat belgilaridan biriga aylanganligi sababli u ma'lum miqdorda adabiyotshunoslik va adabiy tanqidda ma'lum darajada tadqiqot obyektiga aylandi. Badiiy asar – bu muallifning fikr va his-tuyg'ulari orqali yaratilgan hissiy ijodiy faoliyat mahsuli. U insonlar va jamiyat hayoti haqida hikoya qiladi, ya'ni qanday hayot kechirishimiz, qanday voqealar sodir bo'lishi mumkinligini badiiy aks ettiradi. Har bir asarda, muallif voqealarni bizga badiiyat qonunlariga asoslanib taqdim etadi. Bu qonuniyatlar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi va rivojlanadi. Badiiy asarda ko'tariladigan masalalar va muammolar esa, asar yozilgan davrning ijtimoiy muhitiga bog'liq bo'ladi. Budan anglashiladiki, badiiy asarlar hayotimizning turli jihatlarini o'rganadi va bizga undan xulosalar chiqarishimiz uchun turtki beradi.

Asardagi badiiy obraz xarakterini chuqur va kengroq ochib berishda muallif badiiy tasvir vositalari bilan birga psixologik tasvir vositalaridan ham foydalanadi. Asarda muallif tomonidan qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib borish, obraz ruhiy olamining batafsil tavsifi, qalb kechinmalarining tasviri – “badiiy psixologizm” deb yuritiladi.

Insonning fikrlari va his-tuyg'ularini teranroq tushunish va tasvirlash badiiy adabiyotning asosi hisoblanadi. Uzoq tarraqiyot bosqichlarini bosib o'tgan ushbu jihat adabiyotning turli davrlarida har xil yondashuv bilan o'rganilgan va tushunilgan. Bu borada taniqli olimlar orasida A.A.Potebnya, D.I.Ovsyaniko-





Kulikovskiy, Z.Freyd, J.Lakan, K.Yung qarashlari keng tarqalgan. A.Potebnyaning fikricha, badiiy asarlarda obrazlar muhim bo'lib, har qanday obraz o'ziga xos individual psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi. Zigmund Freyd shaxsning individual harakatlari uning faoliyatini psixologik tahliliga asos bo'lishi haqidagi g'oyani ilgari surgan. Jan Lakanning "psixoxanaliz struktura"sida esa butun asar yaxlit psixologik tuzilma, degan qarashlar yetakchilik qiladi. Bundan tashqari Alfred Adler, Karl Yung, Rene Uellek, Ostin Uorren kabi olimlar badiiy asar va undagi poetik obrazlar yaratilishida psixologik mexanizmlarning o'rniga alohida e'tibor qilishgan. Olimlarning fikricha, psixologizm "yozuvchi shaxsini tip va betakror individuallik sifatidagi psixologik tahlili ijodiy jarayoni bo'lib, u yoki bu badiiy asarning yaratilish qonuniyatlari va tipologiyasi, nihoyat, adabiyotning o'quvchiga ta'sirini o'rganadi"¹

Demak, badiiy psixologizm - bu san'at va adabiyotda odamlarning fikrlari va his-tuyg'ularini kengroq tushunishga qaratilgan bir yo'nalish. So'nggi yillarda, ayniqsa, nasriy asarlarda bu masalaga ko'p e'tibor berilmoqda. Bu esa, odamlarning hayoti, psixologiyasi va fikrlari bilan bog'liq bo'lgan turli sabablarga ega. Shuning uchun badiiy asar psixologik tahlilini amalga oshirishda dastlab ushbu nazariy-metodologik muammolar xususida bir to'xtamga kelib olish zarurati bor. A.B.Yesin: "Psixologizm – bu adabiyotning o'ziga xos vositalari ko'magida xayoliy (to'qilgan) shaxs (adabiy personaj) his-tuyg'u, fikr va kechinmalarini yetarlicha to'liq, batafsil va chuqur qilib tasvirlash"², degan ta'rifni beradi. L.Ya.Ginzburgning ta'kidlashicha, psixologizm personaj ichki dunyosining ratsional, soddalashtirib tasvirlanishi bilan baqamti emas, balki: "Badiiy psixologizm qahramonning o'zini tutishidagi xayolga ham kelmagan, nogahoniy, tasodifiy qarama-qarshiliklardan boshlanadi".³ V.V.Kompanyes bo'lsa psixologizm tasvir usulidan ko'ra, muallif psixologiyasini badiiy aks ettirish vositasi deb tushunadi. A.Iezuitov esa adabiyotda psixologizm muammosini

¹ Tangirov Ro'ziboy, Termiz davlat universiteti magistranti. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6687033>. 3-bet

² Есин А. Б. Психологизм русской классической литературы : учебное пособие. — М. : Флинта : Наука, 2011. 10 б.

³ Литературная энциклопедия терминов и понятий ; под ред. А. Н. Николюкина. М.: 2001 (<https://www.academia.edu/37372082/>).

o'rganar ekan, mazkur tushunchaning ko'p ma'noli ekanligini qayd etadi. Ularni uchga bo'lib ta'riflaydi:

- 1) So'z san'atining tug'ma belgisi, uning uzviy xususiyati, badiiyatining isboti...;
- 2) badiiy ijod mahsuli, muallif, uning personajlari va yanada kengroq – yozuvchi shaxsiyati va u yaratgan qahramonlar obrazi orqali ochiladigan jamiyat psixologiyasining (sinf, tabaqa, ijtimoiy guruh, davr va h.k.) ifodasi va aksi...;
- 3) ongli va belgilovchi estetik tamoyil.”⁴

Adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalarda badiiy psixologizmning uchta asosiy prinsiplari – dinamik, analitik va tipologik prinsiplar ajratib ko'rsatiladi. Dinamik prinsipda qahramon ruhiyati uning xatti-harakatlari, mimika va qiliqlari, turli hayotiy vaziyatlarda o'zini tutishi va gap-so'zlari orqali ifodalab beriladi, “mohiyatan bu dramatik asar personajlari ruhiyatini ochish usuliga o'xshash, shu boisdan dinamik prinsip ba'zan psixologik tahlilning dramaturgic usuli deb ta'riflanadi. Tipologik prinsipda obraz ruhiyati uni shakllantirgan va qurshab turgan muhit shart-sharoitlari bilan bog'lab tasvirlab beriladi. Analitik prinsipda qahramon ichki kechinmalari, qalbidagi his-tuyg'ulari, tafakkur va mulohazasi, o'y fikrlari dinamikasi tasvirlanadi, o'sib chiqadi, ular bir-birini to'ldiradi, sifat jihatidan o'zgartiradi”.⁵ Bu shakl personajlar taqdiri va tafakkurida keskin burilishlarni ko'rsatib berishga imkon beradi,

Ta'kidlab o'tish joizki, muallif badiiy obraz xarakteri va uning ruhiyatini ochib berishda yuqorida zikr etilgan uchala shakldan birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda foydalanishi mumkin. Bunda prinsiplardan biri yetakchi bo'lsa, qolgan ikkitasi uni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Umuman olganda, badiiy psixologizmga oid tadqiqotlarda “xarakter” tushunchasi yetakchi o'rinni egallaydi. Sababi, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar adabiyotshunoslik ilmiga oid bo'lsada, bir tomondan ruhiyatshunoslik ilmi bilan bevosita bog'liq bo'lib, mazkur ikki soha

⁴ Tangirov Ro'ziboy Termiz davlat universiteti magistranti <https://doi.org/10.5281/zenodo.6687033>. 4-bet

⁵ Адабиётшunoslik луғати. Д.Қуронов ва б. Т.: Академнашр, 2013.

49 b.

kesishmasiga asoslanadi. Bu esa o'z navbatida "xarakter" tushunchasini ham adabiyotshunoslik, ham ruhiyatshunoslik nuqtai nazaridan aniqlashtirib olishni taqazo etadi.

Psixologizm – Abdulla Qahhor tili bilan aytganda "Yozuvchi mahoratining muhim jihatidir"⁶. Bunda yozuvchi qahramon ichki dunyosini, psixologiyasini o'z uslubi orqali ochib beradi. Unda muallif ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, gallyutinatsiya, tush kabi psixologik tasvir vositalaridan foydalanib, qahramon ichki olamini ochib beradi. Bunda yozuvchi qahramon tashqi dunyoga faqatgina ichki dunyosini yoritib berish uchungina murojaat qiladi. Yuqoridagi izohdan ko'rinib turibdiki, yozuvchi o'zining asarida har bir qahramonning psixologiyasini so'zlar orqali o'quvchiga yetkazib beradi va uning asarini o'qiganimizda ko'z o'ngimizda asar qahramoni namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, psixologizm – bu badiiy asarning uslubiy tasnifi bo'lib, u orqali personajlarning ichki dunyosi chuqur va mufassal bayon etiladi. Bunda qalb kechinmalari juda noziklik va mohirlik bilan tahlil qilinadi. To'g'ri va unumli qo'llanilgan psixologizm tufayli o'quvchi asar voqealarini o'z hayotida sodir bo'layotgandek his qiladi: qahramonlar bilan birga yashaydi, ular g'amga botganda yig'laydi, g'alabaga erishganda quvonadi. Shunday ekan, keng ma'noda psixologizm adabiyotning ichki tabiatidan kelib chiqadi, uning poydevori so'z san'ati rivojining ilk bosqichlaridanoq quyilgan. Anglangan estetik tamoyil sifatida uning yuzaga kelishi adabiy jarayonning eng qadimgi davrlariga borib taqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomova G. Psixologik iztiroblar: Ruhiyat tasvirida dialg va monolog- T.: "Yozuvchi", 1992. 21 b.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –T.: "Fan", 2008. -158 b
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.– T.: O'qituvchi, 1996. – 152 b.

⁶ Адабиётшунослик луғати. Д.Қуронов ва б. Т.: Академнашр, 2013.



4. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. –T: O‘zbekiston, 2008. – 533 b.
5. Mirqosimova M., Rustamova M. Janr va mahorat. – T: Milliy kutubxona. 2007. – 69 b.
6. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. –Toshkent: Yangi asr avlodi,2005. – 418 b. 38.
7. Nazarov B. O‘zbek adabiyoti tanqidchiligi. –T.: Fan, 1979. – 284 b.
8. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug’ati. T.: “Akademnashr”. 2013.
9. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: “Sharq”, 2008